



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 22-fevral

VII-5-28-11-163-K/25

Farg‘ona tumani

Tumanda O‘zbekiston Respublikasining “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi O‘RQ-937-son Qonuni ijrosini ta’minlash haqida

O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan bino va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi O‘RQ-937-son Qonunining 13,16,27- moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Farg‘ona tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-avgustdagi “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi O‘RQ-937-son Qonuni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-avgustdagi “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi **O‘RQ-937-son** Qonunining 13- muddasiga muvofiq, viloyat hokimligi tomonidan berilgan takliflar asosida 2024/2025- yillar uchun ishlab chiqilgan hamda Kadastr agentligi direktori tomonidan tasdiqlangan reja-jadval ma’lumot uchun qabul qilinsin.
3. Quyidagilar:

-Farg‘ona tumanida o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish bilan bog‘liq masalalarni ijrosini ta’minlovchi Ishchi guruhi tarkibi **1- ilovaga muvofiq**;

-Farg‘ona tumanida o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalarini hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarni bosqichma-bosqich xatlovdan o‘tkazish bo‘yicha mahalla kesimida reja-grafik jadvali **2- ilovaga muvofiq**;

-Xatlov jarayoni yakunlangan mahalla fuqarolar yig‘ini bo‘yicha rasmiylashtiriladigan dalolatnomani tasdiqlovchi namunaviy ishchi guruh tarkibi **3- ilovaga muvofiq tasdiqlansin**.

4. 2024-yilning 15-dekabr kuniga qadar tuman sektorlarida xar bir mahalla kesimida yer uchastkasiga hamda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etishga ko‘maklashish bo‘yicha jamoatchilik guruhi tuzilsin hamda sektor raxbarlari tomonidan tasdiqlansin. Jamoatchilik guruhlariga:

-yer uchastkasiga hamda unda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish chog‘ida aniqlangan qonun buzilishlari hollari yuzasidan vakolatli davlat organlarini xabardor qilinishini ta’minalash;

-yer uchastkasiga xamda unda qurilgan binolar va inshootlarga bulgan xuquqlarni etirof etish asoslari va tartibi yuzasidan aholi o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib borish;

-avtomatlashtirilgan axborot tizimida shakllantirilgan ma’lumotlarni kuzatib borish, zarur bo‘lgan taqdirda, ushbu ma’lumotlar bilan tanishishda fuqarolarga ko‘maklashish tavsiya etilsin.

5. Tuman hokimining o‘rinbosari (**M.Qodirxonov**), O‘zbekiston mahallalar uyushmasi Farg‘ona tumani bo‘limi (**D.Xomidov**), mahalla fuqarolar yig‘inlari raislariga:

-tasdiqlangan reja-jadval asosida mahallalarda o‘tkaziladigan xatlov ishlariga jalg etilgan mas’ul xodimlarni ko‘chmas mulk ob’ektlariga kirish uchun sharoit yaratish, o‘lchov ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishiga, ularning xavfsizligini ta’minalashga ko‘maklashish;

-fuqarolar tomonidan o‘lchov ishlarini amalga oshirishga qarshilik ko‘rsatish holatlarida ularga qonuniy tushuntirishlar bergen holda xatlovga jalg etilgan mas’ullarga amaliy yordam ko‘rsatish;

-egasi aniqlanmagan ko‘chmas mulk ob’ektlarining egalariga oid ma’lumotlarga aniqlik kiritishga ko‘maklashish;

-mahalla raisi, profilaktika inspektorlari, hokim yordamchilari va ko‘cha, mahalla faollarini jalg etgan holda, joylarda tashkil etiladigan sayyor qabullarda, uchrashuvlarda, ommaviy tadbirlarda fuqarolarga qonunning mazmun mohiyatini to‘g‘ri tushuntirish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish vazifalari yuklansin.

6. Tuman hokimining o‘rinbosari (**M.Qodirxonov**), Kadastr agentligi Farg‘ona tumani bo‘limi (**V.Esonov**) har oy yakuni bilan tasdiqlangan reja-jadval asosida mahallalarda

o‘tkaziladigan xatlov ishlari holatini tanqidiy tahlil etgan holda tuman hokimligiga axborot kiritib borsin.

7. Tuman hokimligi axborot xizmati (**A.Ergashev**) tasdiqlangan reja-jadval asosida mahalla fuqarolar yig‘inlarida o‘tkaziladigan xatlov jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida yoritilishi ta’minlasin.
8. Mazkur qarorni ijrosini ta’minlash tuman hokimining o‘rinbosari (**O.Abduraximov**, **M.Qodirxonov**), nazorat qilish tuman Kengashining barcha doimiy komissiya raislari zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



INOMOV XAMIDULLO
TADJIYEVICH

Xalq deputatlari Farg‘ona tumani
 Kengashining
 2025-yil 22-fevraldag'i
 VII-5-28-11-163-K/25 -son qaroriga
 1-ilova

Farg‘ona tumanida o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish bilan bog‘liq masalalarini ijrosini ta’minlovchi Ishchi guruhi tarkibi

Nº	F.I.Sh.	Ish joyi va lavozimi
1	M.Qodirxonov	Tuman hokimining qurilish, to‘sqliarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, communal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘ribbosari, ishchi guruhi raxbari
2.	V.Esonov	Kadastr agentligi Farg‘ona tumani bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruh rahbari o‘ribbosari
3.	M.Abdug‘oripov	Tuman prokurorining yordamchisi, ishchi guruhi a’zosi
4.	A. Azimov	Tuman soliq inspeksiyasi bosh inspektori, ishchi guruhi a’zosi
5.	R.Xoqiqurbanov	Tuman sanitariya epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruhi a’zosi
6.	A.Xalimov	Tuman hokimining chegara masalalari bo‘yicha yordamchisi, ishchi guruhi a’zosi
7.	S.Mahkamov	Tuman adliya bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruhi a’zosi
8.	D.Xomidov	O‘zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruhi a’zosi
9.	B.Burxonov	Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruhi a’zosi
10.	A.Akbarov	O‘zbekiston Fermer, dexqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari tuman Kengashi raisi, ishchi guruhi a’zosi
11.	X.Mirzaev	Tuman Qurilish va uy-joy communal xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruhi a’zosi
12.	N. Sobirov	Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruhi a’zosi
13.	Lavozimiga ko‘ra	Tuman sektor kotiblari, ishchi guruhi a’zosi
14.	I.Hamdamov	Tuman favqulotda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruhi a’zosi
15.	U.Toshbekov	Tuman ekologiya va atrof-muxitni muxofaza qilish bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruhi a’zosi
16.	J.Xasanov	Tuman statistika bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruhi a’zosi
17.	N.Otajonov	Kadastrlar palatasi Farg‘ona tumani filiali boshlig‘i, ishchi guruh kotibi

Izoh: ishchi guruh a'zolari boshqa ishga o'tgan yoki lavozimidan ozod etilgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki tegishli funksiyalarini bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.

Xalq deputatlari Farg'ona tumani Kengashining
 2025-yil 22-fevraldag'i
 VII-5-28-11-163-K/25 -son qaroriga
 2-ilova

O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalarini hamda ularda kurilgan binolar va inshootlarni bosqishma-bosqich xatlovdan o'tkazish bo'yicha maxalla kesimida reja grafik jadvali

MFY soni	Xudud nomi	Bir kunda xatlovdan o'tkaziladigan ob'ektlar soni	Ko'chmas mulk-3 dasturida mavjud jami ob'ektlar soni	shundan					
				shundan			Hatlov boshlash sanasi	shundan	
				Noturar	Turar	Qurilishi tugallanmagan va bo'sh yer uchastkalari		2024 yil	2025 yil
25	Farg'ona tumani	42	12 371	593	11 436	342	05/11/2024	5	20
1	YuKSALiSh	42	149	6	139	4	05/11/2024	1	-
2	YaMBAROQ	42	293	19	270	4	08/11/2024	1	-
3	YuQORI GULShAN	42	319	12	296	11	18/11/2024	1	-
4	XO'JA AXMAD VALI	42	371	14	355	2	27/11/2024	1	-
5	BO'STONOBOD	42	397	15	363	19	09/12/2024	1	-
6	ULUG'BEK	42	399	6	387	6	20/12/2024	-	1
7	XURShIDI TOBON	42	450	16	413	21	07/01/2025	-	1
8	LANGAR	42	474	17	454	3	21/01/2025	-	1
9	QORAYaNTOQ	42	484	14	429	41	05/02/2025	-	1
10	OBOD	42	510	23	477	10	20/02/2025	-	1
11	TOShKURG'ONI AZIZ	42	511	18	473	20	10/03/2025	-	1

12	AVVAL	42	449	62	383	4	27/03/2025	-	1
13	BO'STON	42	559	39	516	4	10/04/2025	-	1
14	BAHOR	42	550	26	517	7	29/04/2025	-	1
15	OQTOM	42	563	30	445	88	19/05/2025	-	1
16	XO'ROBA	42	561	22	535	4	05/06/2025	-	1
17	KAPTARXONA	42	577	36	521	20	24/06/2025	-	1
18	BARKAROR HAMJIHATLIK	42	564	14	527	23	11/07/2025	-	1
19	PASTKI ARChA	42	575	19	551	5	30/07/2025	-	1
20	ZILOL	42	593	28	565	0	18/08/2025	-	1
21	GUZAR	42	601	31	560	10	10/09/2025	-	1
22	ShOXIMARDONOBOD	42	617	48	552	17	30/09/2025	-	1
23	SANOAT	42	571	22	543	6	20/10/2025	-	1
24	QURILISH	42	596	9	585	2	06/11/2025	-	1
25	YuQORI VODIL	42	638	47	580	11	26/11/2025	-	1

Xalq deputatlari Farg‘ona tumani
Kengashining
2025-yil 22-fevraldagi
VII-5-28-11-163-K/25 -son qaroriga
3-ilova

**Xatlov jarayoni yakunlangan mahalla fuqarolar yig‘ini
bo‘yicha rasmiylashtiriladigan dalolatnomani tasdiqlovchi
namunaviy ishchi guruh**

TARKIBI

T/r	F.I.Sh	Lavozimi
1.		Mahalla fuqarolar yig‘ini raisi
2.		Mahalla profilaktika inspektori
3.	-	Mahalla davlat soliq inspektori
4.	-	Mahalladagi hokim yordamchisi
5.	-	Kadastr yig‘ma jildlarni tayyorlash sho‘basi kadastr muhandisi
6.	-	Mulkdor yoki foydalanuvchi